


OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

A.X.Boymurodov

Kompyuter grafikasi

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA
(5110700 – Informatika o'qitish metodikasi)



Chirchiq-2020

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач _____


--	--

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

A.X.Boymurodov



3DS MAX
2015



Kompyuter grafikasi

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA

(5110700 – Informatika o'qitish metodikasi)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Chirchiq-2020

-2618-

Boymurodov A.X.

“Kompyuter grafikasi”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Chirchiq, TVChDPI, 2020 y., – 155 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma orqali talabalar Kompyuter grafikasida qo‘llaniladigan dasturlarni mustaqil ravishda o‘rganish orqali grafik ma‘lumotlarni yaratish va qayta ishlashi mumkin. O‘quv qo‘llanmada Kompyuter grafikasi – vektorli, rastri va uch o‘lchovli grafika, ikki va uch o‘lchovli animatsiya xaqida ma‘lumotlar berilgan. To‘plamda Adobe Photoshop (rastri grafika), Corel Draw (vektorli grafika), Adobe Flash (ikki o‘lchovli animatsiya), AutoDesk 3D Studio MAX (uch o‘lchovli animatsiya va grafika) va qo‘shimcha tarzda kompyuter grafikasida qo‘llanilayotgan zamonaviy dasturlar haqida ma‘lumotlar va amaliy ishlar bajarish keltirilgan. Bundan tashqari o‘quvchiga mustaqil ravishda grafik ma‘lumotlar yaratish uchun turli sohalarida qo‘llanuvchi dasturlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan. O‘quv qo‘llanma bakalavriat yo‘nalishi: 5110700 – Informatika o‘qitish metodikasi ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlarni o‘z ichiga oladi.

O‘quv qo‘llanmadagi har bir mavzu nazariy materiallar, amaliy mashg‘ulot bo‘yicha masalalar yechimlari bilan birgalikda mustaqil topshiriqlar bilan to‘ldirilgan.

Taqrizchilar:

t.f.d.dotsent Raximov N.O. – TATU.

t.f.n.dotsent Gulboev N.A.– TVChDPI.

Uslubiy qo‘llanma umumta‘lim maktablari informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilari va informatika o‘qitish medodikasi yo‘nalishi bakalavriat talabalariga mo‘ljallangan mustaqil o‘rganuvchilar, pedagogika ixtisoslashtirilgan oliy yurti talabalariga mo‘ljallangan. Uslubiy qo‘llanmadagi har bir mavzu nazariy materiallar, amaliy mashg‘ulot mashqlari va nazorat savollari bilan to‘ldirilgan.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Aniq fanlar fakulteti uslubiy kengashining 2020 yildagi “29” maydagi №05/1 majlis qarori bilan nasrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Butun dunyoda axborot-kommunikatsiyalari texnologiyalarining texnik va dasturiy ta‘minotlarining gurlirab rivojlanib borayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Shaxsiy kompyuterlar qamrab olmagan sohalarining o‘zi qolmadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kompyuter grafikasi elementlari ham xalq xo‘jaligining barcha sahalarda keng qo‘llanilmoqda.

Zamonaviy kompyuter grafikasi paydo bo‘lishi bilan nafaqat tasvirlarni yaratish, qayta ishlash balki matematik muammolarni echishga qodir, shu bilan eng murakkab texnologik jarayonlarni ekrandada namoyish qila oladigan dasturiy vositalarning yangi davr boshlandi. Kompyuterda uch o‘lchovli modellashtirish, animatsiya va grafikasi malumotlarni tasvirlashni amalga oshirishdagan ulkan imkoniyatlar paydo bo‘ldi.

Kompyuter grafikasi deganda obyektning hajm modellarini yaratish, saqlash, ishlov berish va kompyuterlar yordamida ularni namoyish etish tushuniladi. Kompyuter grafikasi yangi informatsion texnologiyalar orasida to‘xtovsiz rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ular videofilm kadrlari bilan sifat bo‘yicha taqqoslashga loyiq hajmli harakatlanuvchi tasvirlarni yaratishga imkon beradi. Bu dasturiy mahsulotlar reklamalar ishlab chiqaruvchi vositalar hisoblanib, san‘at va multimeidiya texnologiyasi sohalarida qo‘llaniladi. Bundan tashqari namoyish grafikasiga, geometrik modellashtirishga, grafik interfeyslarni loyihalashga, animatsiya (harakatlanuvchi tasvirlar)ga va ko‘zga ko‘rinuvchi (vizual) harakatni qurishga katta e‘tibor berilmoqda.

Kompyuter grafikasi ilm va fanning barcha sohalarida, ayniqsa iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin.

Kompyuter grafikasi dunyo fanida yangi fundamental fan hisoblanib, o‘tgan asrning 60-yillarida paydo bo‘ldi va ishlab chiqarishning barcha sohasida kadrlar tayyorlab berishda o‘ziga xos aha-miyatgaegadir.

Maxsus dasturlar yordamida xuddi bir varaq oq qog‘ozga qalam yoki ruchka bilan har xil rasmlarni solish singari kompyuter ekranida sichqoncha yordamida rasm chizish, ya‘ni tasviriyasash, tuzatish va ularni harakatlantirish imkoni yaratildi. Bu dasturlar rasm chizish programmalari yoki grafik muharrirlar hisoblanib, ular yordamida rasmning elementlari boshqarib boriladi.

Kompyuter grafikasining juda tez rivojlanib borishi va undagi texnikaviy, dasturiy vositalarining yangilanib borishi ushbu kursni hamisha takomillashtirishni, bu sohada yangi yo‘nalishlarni tin-may o‘rganib borishni taqozo etadi. Oxirgi yillarda bu sohada juda katta o‘zgarishlar (siljishlar) yuz berdi, ya‘ni 16 mln dan ortiq rang va rang turlarini o‘zida aks ettira oladigan displeylar, grafik axborotlarni (paper part) kirituvchi moslama - skanerlar, grafik ish

stansiyalari, dasturiy vositalar sohasida esa haqiqiy kompyuter dunyosini kashf qila oladigan amaliy dasturlar vujudga keldi.

1-BOB. KOMPYUTER GRAFIKASI HAQIDA

Kompyuter grafikasi tushunchasi

Kompyuter grafikasi tushunchasi hozirda kengqamrovli sohalarni o'z ichida mujassamlashtirib, bunda oddiy grafik chizishdan to real borliqdagi turli tasvirlarni hosil qilish, ularga zeb berish, dastur vositasi yordamida hatto tasvirga oid yangi loyihalarni yaratish ko'zda tutiladi. Kompyuter grafikasi keng tarqalib borayotgan dastur ta'minotidir, ya'ni kompyuter grafikasi mavjud va yangi yaratilayotgan dasturlarga tayanadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyasida kompyuter grafikasi bilan ishlash eng ommobop yo'nalishlardan biri bo'lib bormoqda. Hozirda bu yo'nalish bilan hatto professional rassom va dzaynerlar ham shug'ullanmoqda.

Ma'lumki inson axborotni eshitish va sezish a'zolariga nisbatan ko'rish a'zolari orqali boladi Ko'rgazmali axborotning o'zlashtirilishi oson bo'ladi.. Inson tabiatining ana shu xususiyati grafik operatsion tizimlarda ishlatiladi. Axborotning asosiy qismini inson ko'rish a'zolari orqali boladi. Ko'rgazmali axborotning o'zlashtirilishi oson bo'ladi. Inson tabiatining ana shu xususiyati grafik operatsion tizimlarda ishlatiladi. Ularda axborot grafik ob'ektlar: znachoklar (belgilar), oynalar va rasmlar ko'rinishida tasvirlanadi.

Operatsion tizimning barcha grafik ob'ektlari, shuningdek, boshqa barcha tasvirlar qandaydir yo'l bilan kompyuterda xosil qilinishi yoki unga kiritilishi kerak. Grafik tasvirlarni kompyuterga kiritish uchun maxsus tashqi (atrof) qurilmalari ishlatiladi. Eng ko'p tarqalgan qurilma — bu skanerdir. So'nggi paytda raqamli fotokameralarning ham qo'llanish ko'lami kengayib bormoqda. Ularning oddiy fotoapparatlardan farqi shundaki, tasvir kimyoviy yo'l bilan fotoplyonkaga tushirilmaydi, balki fotokamera xotirasining mikrosxemalariga yozib qo'yiladi. U erdan axborotni kabel orqali kompyuterga uzatish mumkin. Ayrim raqamli fotoapparatlar ma'lumotlarni fayl sifatida egiluvchan diskka yozib qo'yish imkoniyatiga ham ega. Diskdagi axborotni esa kompyuterga o'tkazish unchalik qiyin emasligini siz yaxshi bilasiz.

Tasvirni kompyuterga videokameradan ham kiritish mumkin. Videoning ketma-ketlikdagi biror kadrlari tanlashi va uni kompyuterga kiritishi *tasvirni ushlab olish* deyiladi.

Kompyuterga tasvirni kiritish uchun uni albatta skanerlash, rasmga olish yoki uni ushlab olish shart emas. Tasvirni kompyuterning o'zida ham xosil qilish mumkin. Buning uchun grafik muxarrirlar deb ataluvchi maxsus dasturlar sinfi ishlab chiqilgan.

Ularda axborot grafik ob'ektlar: znachoklar (belgilar), oynalar va rasmlar ko'rinishida tasvirlanadi. Operatsion tizimning barcha grafik ob'ektlari, shuningdek, boshqa barcha tasvirlar qandaydir yo'l bilan kompyuterda xosil qilinishi yoki unga kiritilishi kerak. Grafik tasvirlarni

kompyuterga kiritish uchun maxsus tashqi (atrof) qurilmalari ishlatiladi. Eng ko'p tarkalgan qurilma — bu skanerdir. Sunggi paytda raqamli fotokameralarning ham qo'llanish ko'lami kengayib bormoqda. Ularning oddiy fotoapparatlardan farqi shundaki, tasvir kimyoviy yo'l bilan fotoplyonkaga tushirilmaydi, balki fotokamera xotirasining mikrosxemalariga yozib qo'yiladi. U erdan axborotni kabel orqali kompyuterga uzatish mumkin. Ayrim raqamli fotoapparatlar ma'lumotlarni fayl sifatida egiluvchan diskka yozib qo'yish imkoniyatiga ham ega. Diskdagi axborotni esa kompyuterga o'tkazish unchalik qiyin emasligini siz yaxshi bilasiz. Kompyuterga tasvirni kiritish uchun uni albatta skanerlash, rasmga olish yoki uni ushlab olish shart emas. Tasvirni kompyuterning o'zida ham xosil qilish mumkin. Buning uchun grafik muxarrirlar deb ataluvchi maxsus dasturlar sinfi ishlab chiqilgan. Axborotni grafik shaklda ishlab chiqish, taqdim etish, ularga ishlov berish, shuningdek, grafik ob'ektlar va fayllarda bo'lgan nografik ob'ektlar o'rtasida bog'lanish urnatishni informatikada kompyuter grafikasi deb atash qabul qilingan. Maxsus kompyuter dasturlari xuddi bir varak oq qog'ozga qalam yoki ruchka bilan xil rasmlarni solish singari kompyuter ekranida sichkoncha yordamida rasm chizish, ya'ni tasvir tuzish, tuzatish va ularni harakatlantirish imkonini yaratadi. Bu dasturlar rasm solish programmalari yoki grafik redaktorlar h isoblanib, ular yordamida rasmning elementlari boshqarib boriladi. Kompyuter grafikasining juda tez rivojlanib borishi va uning texnikaviy va dasturiy vositalarining yangilanib turilishi kursni ham amisha takomillashtirishga, bu sohadagi yangi yo'nalishlarni tinmay o'rganib borishni takozo etadi.

Hech qaysi zamonaviy multimedias dasturi kompyuter grafikasiz bo'lmaydi. Ommaviy foydalanish uchun dasturlar yaratuvchi dasturchi mutaxassislarning 90% gacha ish vaqti grafika bilan ishlashga ketadi. Redaksiya va nashriyotda asosiy me'nat sarfini grafik dasturlar bilan badiiy bilan ishlashga ketadi. Redaksiya va nashriyotda asosiy me'nat sarfini grafik dasturlar bilan badiiy bilan ishlashga ketadi. Grafika dasturlarning keng foydalanishga ehiyoj Internetning rivojlanishi, eng avvalo millionlab alohida "sahifa"larni yagona to'rga birlashtiruvchi WWW xizmati bilan bog'liq ravishda sezilarli darajada oshdi. Kompyuter grafikasi nafaqat ilmiy xodimlar, balki rassomlar, turli soha loyihachilari, reklama bilan shug'ullanadigan mutaxassislar, Internet sahifalarini yaratish, o'qitish jarayoni uchun va boshqa soxalarda muxim rol o'ynamoqda. Uning ayniqsa, matbaa sohasida qo'llanilishi keyingi paytlarda rang - barang suratli adabiyotlar, o'quv qo'llanmalari, badiiy asarlarning paydo bo'lishiga yuksak bezak texnikasidan foydalanishni taqazo qilmoqda. Diqqatni o'ziga jalb qiluvchi videoroliklar, internet sahifalarini yaratishni kompyuter grafikasiz tasavvur qilish qiyin bo'lib qoldi. kompyuter grafikasi jahonda yangi fundamental fan hisoblanib, barcha sohalarda kadrlar tayyorlab berishda o'ziga xos mustaqil ahamiyatga egadir

Kompyuter grafikasi turlari

Kompyuter grafikasi uch turga bo'linadi:

- rastrli grafika
- vektorli grafika
- fraktal grafika
- uch ulchovli grafika

Ular bir-biri bilan monitor ekranida tasvirlanishi va qog'ozda bosib chiqilishi bilan farqlanadi. Dastlabki rastrli va vektorli grafikasi orasidagi farqi grafik tasvimi yaratish texnologiyasi, aks ettirish uslubi, tahrirlash va sahilashda bilinadi. Qisqacha qilib bu farqni shunday tushuntirish mumkin: nuqtali grafikada tasviming minimal elementi nuqta hisoblanadi, vektorli grafikada esa - egri chiziqdir..

Rastrli qurilmalarda tasvirlarni tashkil etuvchi nuqtalar majmuasidan vujudga keladi. Bu nuqtalar piksellar (pixels) deb ataladi. Rastr - bu ekranning butun maydonini qoplovchi piksellar matrisasidir. Demak, rastrli grafikaning asosiy elementi nuqtadan iborat. Nuqtali rasm koordinatalar va rangga ega bo'lgan nuqtalar to'plamidan iborat. Grafik muharrir bu rasmini nuqtalarni ketma-ket chizgan holda tasvirlaydi. Oddiy holda nuqtali tasvirdan iborat bo'lgan fayl - rasmini birin-ketin hosil qiluvchi nuqtalar ketma-ketligi va ularning ranglarini o'z ichiga oladi. Minglab yillardan beri yaratib kelinayotgan rangtasvir asarlarini nuqtali grafikaning ilk ko'rinishi deyish mumkin. Atrofimizdagi olamda biz faqat nuqtali tasvirlarni ko'ra olamiz. Fotosurat, rasm, izlar, tasvirlar ko'zimizda nuqtali xarakterda aks etadi.


Vektorli grafikaning asosiy elementi - chiziqdir. Vektorli tasvirlar deb - tuzilishi jihatidan murakkabroq va har xil ko'rinishga ega bo'lgan geometrik ob'ektlar to'plamiga aytiladi. Bunday ob'ektlarga misol tariqasida to'g'ri to'rtburchaklar, aylanalar, ellipslar, ko'p burchaklar, kesmalar va chiziqslarni keltirish mumkin. Vektorli grafikaning xarakterli xususiyatlaridan biri undagi har bir ob'ekt uchun ularning tashqi ko'rinishlarini o'zgartirish imkonini beradigan boshqarish parametrlari mavjud. Nuqtali tasvirlardan farqli ravishda vektorli tasvirlar ixtiyoriy ichki strukturaga ega bo'lishi mumkin. Vektorli tasvirlarni nuqtali tasvirlarga aylantirish foydalanuvchi ishtirokisiz, amaliy dastur tomonidan amalga oshiriladi. Lekin nuqtali tasvirlarni vektorli tasvirga aylantirish foydalanuvchidan katta mahorat talab qiladi. Vektorli grafika asosida geometrik figuralarning xossalari haqidagi matematik tasavvur yotadi. Vektorli grafikaning matematik asoslari bu nuqta, to'g'ri chiziq, kesma, ikkinchi va uchunchi tartibli egri chiziqlardir. Nuqta tekislikda ikkita son bilan (x,y) aniqlanadi. To'g'ri chiziq esa ikkita parametrga ega bo'lgan $y=ax+b$ tenglama orqali aniqlanadi. Agar bu to'g'ri chiziq x o'qida ikkita x_1 va x_2 koordinatalari bilan chegaralansa u kesmani aniqlaydi. Ikkinchi tartibli egri chiziqqa parabola, giperbola, ellips va aylanani misol qilish mumkin. Bu ikkinchi tartibli egri chiziq tenglamasi umumiy holda quyidagicha:

$x^2+ay^2+a_2xy+a_3x+a_4y+a_5=0$. Kompyuterda vektorli tasvirlar bilan ishlash nuqtali tasvirlar bilan ishlashga qaraganda ancha oson. Hozirda vektorli tasvirlar yaratuvchi amaliy dasturlar mashina grafikasining asosini tashkil qiladi.

Fraktal grafika - bu tasvimi chizish yoki jihozlash emas, balki uni matematik hisoblashlarga asoslangan dasturlar asosida qurishdir, ya'ni bunda tasvirlar formulalar yordamida ko'riladi.. Fraktal grafikada esa tasvirlarni matematik hisoblashlar yordamida avtomatik o'zgartirib ko'paytirish yo'li chiroyli manzaralar hosil qilinadi. Fraktal kompozisiya yaratish chizish yoki shakl berish emas, balki dasturlashga asoslanadi. Teleko'rsatuvlar va reklamalarni badiiy bezashda ishlatiladi. Fraktal grafika odatda o'yin dasturlarini yaratishda ko'proq qo'llaniladi. Fraktal grafika matematik hisoblashlar asosida tasvirlarni avtomatik yaratish uchun qo'llaniladi. Shuning uchun ham uning asosi sifatida rasm, shakl, tasvir hosil qilishning dasturlash usuli tanlangan. Bu grafika, odatda, turli jarayonlarni modellashtirish, tahlil qilish, turli qiziqiruvchi dasturlar yaratishda keng qo'llaniladi.

Фрактал графика бадий композиция яратиш - бу тасвирни чизиш ёки жиҳозлаш эмас, балки уни дастурлашдир, яъни бунда тасвирлар формулалар ёрдамида қурилади. Фрактал графика одатда ўйин дастурларида қўлланилади.

Фрактал график дастурларга Mathcad 2000 ва Ultra Fractal дастурлари мисол бўлади. Ultra Fractal дастурининг қўриниши қуйидагича бўлади:



Uch ulchovli grafika Uch o'Ichovli grafika ilmiy tekshirishlarda, injenerlik loyiha ishlarida, fizik ob'ektlarning kompyuter modellarini qurishda keng qo'llaniladi. Uch o'Ichovli grafika kompyuter grafikasi tarkibiga kiruvchi eng murakkab va keng qamrovli yo'nalishdir. Uch o'Ichovli grafika bilan ishlovchi foydalanuvchi loyihalash, yoritish, ob'ektlar va kameralarni ko'chirish, tovush va namoyish effektlardan foydalanish kabi sohalar bilan bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bu erda shu sohaning tashkil etuvchilari - fazolar, ob'ektlarni modellashtirish, namoyish tog'risida ma'lumotlar keltiriladi.

Oxirgi yillarda an'anaviy 2D grafik dasturlar bilan uch o'Ichovli 3D modellashtirish, animasiya va namoyish dasturlari ko'p tarqaldi. Shu davrda ishlab chiqilgan dasturlardan Discreet kompaniyasining 3D Studio MAX yoki Alias Wavefront kompaniyasining JAVA dasturlari o'z mohiyatlari bo'yicha gibril grafik paketlardir. Chunki ular bir tomondan 2D va 3D vektorli

ob'ektlar bilan ishlash imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan ish natijasidan pikseli (rastri) tasvir - alohida kadr sifatida yoki videotasmada olinadi. 3D modellashtirishning xususiyatlari va ularda animasiya harakatlarni qo'shish imkoniyati ularga bo'lgan qiziqishni keskin oshirib yuboradi. Ularni:

- namoyish effektlarini kino va videoindustriyada;
- televizion tijoratda (reklamada);
- interaktiv o'yinlarda;
- sano't va arxitektura dizaynida (bezashda);
- ilmiy, tibbiy va sud namoyishlarida;
- o'rgatuvchi dasturlar va kompyuterda ishlatish mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki uch o'lchovli grafika dasturlari kompyuter qurilmalari, uning dasturiy ta'minoti hamda u bilan ishlovchi dizayner bilimlariga juda yuqori talablar qo'yadi.

Uch o'lchovli grafika bilan ishlaganda, shakllar hosil qilinadigan fazoga alohida e'tibor berish kerak. Bu holda an'anaviy 2D — tekislik uch o'lchovli grafika maqsadlariga to'g'ri keltiriladi. 3D — grafikada ishchi fazoni shunday ifodalash kerakki, unda nafaqat modellashtirilayotgan uch o'lchovli geometrik shaklni, balki uning geometrik joylashishi va holati hisobga olinishi kerak. Uch o'lchovli grafikada Dekart, silindrik va sferik koordinata sistemalari ishlatiladi.

Qurilgan barcha uch o'lchovli ob'ektlarni geometrik va no geometrik ob'ektlarga bo'lish mumkin. Geometrik ob'ektga asosan sahna tashkil etuvchilarini qurishda ishlatiladi: personajlar, jismlar, boshqa so'z bilan aytganda — mavjud borliq ob'ektlarini. No geometrik ob'ektlar esa sahnaga jonlilik hissini berish uchun (to'g'ri yoritish), ob'ektlarga ta'sir etuvchi kuchlarni model- lashtirishda (masalan gravitatsiya yoki shamol esishi) va hokazo.

Boshqacha aytganda namoyish etilayotgan kadrda geometrik ob'ektlar aynan (chiziqlar va sirtlar ko'rinishda), no geometrik ob'ektlar esa oraliq (soyalar, tezlantirish va hokazo) ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Kompyuter grafikasining quyidagi turkumlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- tijoratga oid
- namoyishlarga oid;
- injenerlikka oid;
- ilmiy;
- ko'rgazmaviy;
- animatsion;

Tijoratga oid grafika elektron jadvallarda yoki berilganlar bazasidagi axborotlarni aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu axbo-rotlar ShEHM monitor ekranida grafik, gistogramma, diagramma va xohlagan boshqa ko'rinishlarda aks ettirilishi mumkin. Bunda grafiklar matn izohlari va ma'lim joylarda shartli belgili izohlar bilan ta'minlanadi. Tijorat grafikasiga tegishli bo'lgan amaliy dasturlar paketi tasvirni ekranda tezda va qulay ifodalashga qaratilgan, chunki tijorat chini ningsiy maqsadi axborotlarni qayta ishlash jarayonidagi o'zgarishlarni tezda muhokama qilib, tegishli qarorlar qabul qilishdan iboratdir. Tasavvurni yanada oshirish uchun ushbu paketlarda tasvirni turli xildagi grafika shaklida tasvirlash imkoniyati kiritilgan. Bu esa, o'z navbatida, barcha turdagi tasvirlarni ekranda birgalikda ko'rib, tahlil qilish imkoniyatini oshiradi. Bu paketlarning eng ahamiyatli tomoni shundaki, ular tasvirlarni turli xil shaklda berishdan tashqari aks ettirilgan grafikalarini tahlil qilish imkoniyatini ham beradi. Shu sababli bu paketlarga turli xil matematik tahlil usullari, jumladan statistik tahlil, ehtimollar nazariyasi, iqtisodiy jarayonlar bashorati kabi usullar kiritilganki, ular berilgan axborot to'plamini tahlil qilish imkonini beradi.

Namoyish qilish grafikasi - matn, sxema, eskiz kabi hujjatlarning mashinaviy tasvirini hosil qilish uni namoyish etishga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Bu erda eng asosiy vazifa - yuqori sifatli va chiroyli ko'rinishdagi tasvirlar hosil qilishdan iborat. Bu turdagi grafikaning eng afzal tomoni shundaki, undagi tasvirlar to'plami va ko'rinishini tezda o'zgartirish mumkin.

Injenerlik grafikasi - bunday grafika chizmachilik, loyihalash va konstruktorlik ishlarini avtomatlashtirishda keng qo'llaniladi. Injenerlik grafikasi analiz, sintez, modellashtirish, chizmachilik, boshqarish va shu kabi loyihalash ishlarini avtomatlashtirishning hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Ilmiy grafika - ilmiy izlanishlar uchun xizmat qiladi va geografik, fizik, biologik va boshqa jarayonlarni tadqiq qilishda qo'llaniladi. Ilmiy grafikaning eng asosiy maqsadi ilmiy izlanishlarda hosil bo'ladigan axborotlarni vizuallashtirish - ko'zga ko'rinarli shaklda ifodalashdir. Ayniqsa bu yo'nalish atom energiyasi manbalarini tadqiq qilishda, kosmonavtika, samolyotsozlikda, geografiya va okeanologiyada -xullas qamrovi katta bo'lgan, tez kechadigan jarayonlarni o'rganishda keng qo'llaniladi. Shuningdek, ilmiy izlanishlar natijalarini kerakli shaklda diagrammalar, xaritalar, jadvallar va turli matematik formulalar shaklida tasvirlashda ishlatilishi mumkin.

Ko'rgazmaviy grafika - namoyish va tijorat grafikalarining rivoji bo'lib, shu ikkala grafika imkoniyatlarining yig'indisini tashkil etadi.

Animatsion grafikada - rang bilan ishlashdagi muvofiqiyatlarni, muhandislik grafikasidagi uch o'lchovli obyektlarni modellashtirishdagi yutuqlar bilan qo'shib uyg'unlashtirilgan.

Kompyuter grafikasi bilan ishlovchi dastur sinflari.

Xozirgi kunga kelib kompyuter grafikasi va animatsiyasi vositalari kirib bormagan soxani topish kiyin.

Kompyuter grafikasi va animatsiyasi vositalarini kullanish soxasiga kura kuyidagi guruxlarga ajratish mumkin:

poligrafiya ishlari uchun muljallangan kompyuter grafikasi dasturlari;

ikki ulchamli rang tasvir kompyuter grafikasi;

takdimot ishlari uchun muljallangan dasturlar;

ikki ulchamli animatsiya dasturlari;

uch ulchamli animatsiya dasturlari;

ikki ulchamli animatsiya dasturlari;

ikki ulchamli va uch ulchamli animatsiya dasturlari;

videotasvirlarni kayta ishlovchi komplekslar;

ilmiy vizuallashtirish ishlarini bajaruvchi dasturlar.

Kompyuter grafikasi va animatsiyasi dasturlari rassom va dizaynerlar, poligrafchi va kinematografchilar, kompyuter uyinlari va ukitish dasturlari yaratuvchilari, klipmeyker va olimlar, shuningdek uz faoliyatida turli formatdagi tasvirlardan foydalanuvchi barcha mutaxassislarda xam katta kizikish uygotadi.

Poligrafiya ishlari va rasm chizish uchun muljallangan kompyuter grafikasi dasturlari matni turli kurinishdagi illyustratsiyalar bilan tuldirish, saxifalar dizaynini yaratish, xamda yukori sifatli poligrafiya maxsulotlarini chop ettirish imkoniga egadirlar. Bunday dasturlarga misol kilib, tasvirlarni kayta ishlash imkonini beruvchi Adobe Photoshop rastri paketini keltirish mumkin. Bu va shunga uxshash paketlar rastri tasvirlarni taxrirlash va montaj kilish uchun zarur bulgan vositalardan: skanerlangan tasvirlar rangini korreksiyalash, fotosuratlarni «tekislash», maxsus effektlar va maskalardan foydalanish imkonini beradi. Paketning sunggi versiyalari tasvirlarning kup katlamli tuzilmasini kullash bilan birga vektorli konturlarni yaratish va taxrirlash imkoniyatlariga xam ega. Paket tarkibiga turli maskalar, kup sonli filtrlardan tashkari rang bilan ishlash va maxsus effektlarni yaratishga muljallangan vositalar majmui kiritilgan.

Rastri paketlardan tashkari poligrafiya ishlari uchun muljallangan vektorli kompyuter grafikasi dasturlari xam mavjud. Bulardan Windows tizimi uchun muljallangan Adobe Illustrator va Corel Draw dasturlari xakida aytib utish mumkin. Adobe Illustrator illyustratsiyalar yaratish, saxifalarning umumiy dizaynini ishlab chikish, xamda tayer tasvirni yukori sifatda chop etishga mo'ljallangan. Paket ixtieriy shakldagi simvollar va figuralarni yaratib, sung ularni masshtablash, aylantirish(uz

uki atrofida) va deformatsiyalash imkoniyatlaridan tashkari matn va kup varakli xujjatlarni kayta ishlash vositalariga ega.

Corel Draw vektorli paketi rasm chizishdan tashkari turli grafiklarni tayerlash va rastri tasvirlarni taxrirlash ishlarini bajara oladi. Bu dastur fayllarni boshkarish, kompyuter displeyida slayd-filmlar namoyish etish, «kulda» chizish va tasvir katamlari bilan ishlash, uch ulchamli maxsus effektlarni qo'llash, matni kayta ishlash vositalari bilan ta'minlangan. Bulardan tashkari Windows muxitida ishlovchi Adobe PhotoStyler, SGI va Macintosh kompyuterlari uchun muljallangan Barco Creator, Live Picture, Scitex Blaze, Linotype Da Vinci, Eclipse, Pixelfx dasturlari xam keng tarkalgan. Barco Creator dasturi uzining ishlash tezligi, xamda keng funksional imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Taqdimot ishlari dasturlari.

Macintosh va Windows muxitlarida ishlatiluvchi takdimot dasturlar paketidan anchadan buyon mavjud dasturlar guruxini ajratib kursatish mumkin. Bu guruxga Lotus firmasining Freelance Graphics, Software Publishing firmasining Harvard Graphics, Microsoft korporatsiyasining Power Point dasturlari kiradi. Bu dasturlarni ishlab chiquvchilari xar bir yangi versiyasi(rusumi)da ishlatiladigan vositalarni kupaytirib imkoniyatlarini kengaytiradilar.

Macintosh va Windows muxitlaridagi yangi turdagi takdimot dasturlari paketi multimedia vositalarini yanada to'lik ishlatishga muljallangan. Bu dasturlar video a tovushli fayllarni qulay uzatish (import qilish), diagrammalarda animatsiya vositalaridan keng foydalanish imkonini beradi. Yangi turdagi takdimot dasturlar katoriga Macromedia firmasining Action xamda Gold Disk firmasining Astound dasturlar paketi (tuplami) kiradi.

Power Point dasturi MS OFFICE dasturlar to'plami tarkibiga kiradi. Undan foydalanish oson, qulay. Dasturda o'rgatuvchi o'quv dasturi, tayyor takdimot namunalari, matn bilan ishlash vositalari, boshlovchilar uchun foydali yordam tizimi mavjud.

Power Point dasturida ichki multimedia vositalari bo'lmasada, bu vositalarni OLE-2(Object Linking and Embedding) texnologiyasi yordamida kengaytirish va to'ldirish mumkin.

Astound dasturi(paketi) yangi takdimot dasturlari ichida eng yaxshilaridandir. U ishlatilishi soddaligi bilan ajralib turadi. Tovushli kliplar, xarkatli tasvirlar va multimedaning boshka elementlaridan bir vaktning o'zida baravar (sinxron) ishlatishga imkon beradi.

Takdimot dasturlari ichidan OS/2 va Macintosh muxitida ishlovchi komponovka (ixchamlashtirish, birlashtirish) va dizayn vositalariga ega Adobe Persuasion dasturini, Windows muxitida ishlovchi kuchli rasm chizish vositalari qulay boshkaruvga ega Novell Presentations dasturini, xamda slayd-ko'rgazmalar uchun Lifeboat Publishers firmasining Demo-it dasturini, takdimotlar imkoniyatlarini

kengaytirish uchun mo'ljallangan Macromedia firmasining Director dasturlarini aloxida e'tiborga olish kerak bo'uladi.

Ilmiy vizuallashtirish dasturlari

Ilmiy vizuallashtirish dasturlar nafaqat maxalliy rejalashtirish masalalarini xal qilishga, balki kuyosh portlashlarini vizuallashtirish masalalarini xal qilishgacha mo'ljallangan.

ShK da ishlatiladigan ilmiy va muxandislik grafikasi dasturlari ichidan Golden Software firmasining Surfer va Grapher, MapViewer dasturlarini aloxida kursatish mumkin. Bu dasturlar tekislik va grafiklar xamda rangli kartalar(xaritalar) yaratish uchun mo'ljallangan. Ular DOS va Windows muxitlarida ishlaydi. Rangli grafik va xaritalarni bu dasturlar yordamida ixtiyoriy monitor yoki tashki qurilmalarga chikarish mumkin. Surfer paketi $z=f(x,y)$ kurinishdagi funksiyalar bilan aniklanadigan ikki ulchovli berilganlarga ishlov berish va vizuallashtirishga muljallangan. U tekislikning rakamli modelini kuradi, yordamchi amallarini bajaradi xamda natijalarni vizuallashtiradi. Grapher dasturi $y=f(x)$ kurinishdagi funksiyalarga ishlov berish va grafiklarini yasashga muljallangan. Unda bir rasmdagi grafiklar soni va grafiklardagi egri chiziklar soni cheklanmagan. Xar bir egri chizik 32000 tagacha nuqtadan iborat bo'lishi va bir grafikda xar xil ulchovli, masshtabli bir nechta koordinata uqlari bulishi mumkin. MapViewer paketi kartalarni kiritish taxrirlash-masshtablarni o'zgartirish, koordinatalarni o'zgartirish xamda kartalar bilan boglik rakamli axborotga(masalan- demografik ma'lumotlarga) ishlov berish va grafik ko'rinishda chikarish imkonini beradi.

Yukorida keltirilgan vizuallashtirish dasturlaridan tashkari umumiy xolda ishlatiladigan kuyidagi vizuallashtirish dasturlari xam bor: IRIS Explorer, VIS-5D, PV- Wave, Khronos, Data Visualizer, Data Explorer.

SGIdagi Earth Watch dasturi yordamida Yer ob-xavo sharoitining uch ulchovli tasvirini modellashtirish va kursatish, kosmik suratlar asosida topologik tekisliklarini kurish xamda ob-xavo ma'lumotlarini bir hafta oldin berish mumkin.

Video va komponovka bilan ishlash tizimlari.

Rakamli videotasvirlarga ishlov berish dasturlari xamda ikki ulchovli va uch ulchovli grafikadan foydalangan xolda kupkatlamli kompozitsiyalarni yaratish, murakkab(s'emka) suratga olish jarayoni o'rmini egallashi, kompyuter grafikasi yordamida suratga olingan materiallarga ishlov berish, suratga olingan materiallarni kompyuter animatsiyasi bilan qo'shish, natijalarni kino va videotasmalarga chikarish mumkin.

Windows va Macintosh muxitlarida ishlovchi videotasvirlarni taxrirlash dasturi Adobe Premier rakamlashtirilgan videoni, statik tasvirlarni va tovushli fayllarni montaj qilish imkonini beradi. Paketning eng oxirgi versiyasi (rusumi) turli usullar bilan bir nechta mustakil videoroliklarga ishlov

berish, ko'pgina filtrlardan foydalanish, maxsus effekt va shriftlarni xosil kilish imkoniga ega. Bu dasturning raqobatchilari sifatida ATI firmasining MediaMerge dasturini, eng kuchli dasturlardan yukoridagi Adobe firmasining CoSA After Effects dasturini ko'rsatish mumkin. SGI muxitida ishlovchi Composer dastur Alias/Waferfront firmasining maxsulotidir. Bu dastur maxsus effektlarni yaratish, videoyozuv vositalari, kompleks saxnalarni xosil qilish uskunalaridan foydalanish imkoniga ega .Shular yordamida yukori sifatli video maxsulotlarni yaratish, yozish, taxrirlash, mumkin. Bulardan tashkari aloxida kadrlarni va animsiyali kliplarni kompanovka qilish, aralashtrish (mikshirovat), ularga maxsus effektlarni matnlarni qo'shish mumkin. Paket (dastur) nafakat videoyozuvning oxirgi natijasini, balki oralik kadrlarni (natijalarni) quyi imkoniyati kichik ekranlarda kuzatish ko'rish mumkin.

Composer dasturi barcha kino va videoformatlarni xamda video bilan ishlovchi kurilmalarni qo'llash imkonini beradi. Bu dasturlardan tashkari SGI muxitida videoga ishlov beruvchi Chiron firmasining Liberty, Integrated Research firmasining Harmony, Parallax firmasining Matador, Avid firmasining Media Suite Pro, Discreet Logic kompaniyasining Flint paketi, Flame, Interno, XAOS firmasining Pandemonium dasturlari mavjud. 2 o'lchovli va 3 o'lchovli modellashtirish dasturlari dizaynerlik va muxandislik ishlamlari uchun qo'l keladi. Bulardan tashkari bu dasturlarni uch o'lchovli animatsiya, poligrafik, takdimot paketlari bilan to'ldirish mumkin.

Modellashtirish dasturlari ichida WINDOWS muxitida ishlatiluvchi eng kuchli avtomatlashtirilgan loyixalash tizimi isfatida Autodesk firmasining AutoCad dasturini olish mumkin. Odatda, AutoCad ni avtomatlashtirilgan loyixalash tizimi(SAPR)ning grafik yadrosi sifatida qabul qiladilar. Dastur yordamida turli chizik, yoy, matnlar xosil qilish, taxrirlash, 2D va 3D modellarni yaratish, loyixalash jarayonida vujudga keladigan ko'pgipa muammolarning echimini avtomatlashtirish, xususiy ssenariy va makrokomandalar yaratib, aniq(konkret) masala va ilovalarga tizimni sozlash, adaptatsiya qilish mumkin.

AutoCad paketi Auto LISP ichki dasturlash tiliga ega bulib, uning yordamida foydalanuvchi yangi buyruklarni xosil kilishi va xatto yukori darajadagi dasturlash tillaridan foydalanishi mumkin.

IBM va Macintosh muxitlarida uch o'lchovli modellashtirish uchun ko'pincha Alias/ Wavefront firmasining splaynli modellashtirish dasturi Sketch! ishlatiladi. Bu dastur yukori sifatli vizuallashtirish imkonini beradi. Ray Dream Designer dasturi esa maxsus modellashtirish vositalari to'plamiga ega bo'lib, tasvirning fotorealistik sifatiga erishish imkonini beradi. Macromedia firmasining MacroModel paketi va Auto.des.sys firmasining Form.Z dasturi uch o'lchovli ob'ektlarni modellashtirish va deformatsiyalash vositalariga ega.

IBM ga mos kompyuterlarda yana Crystal Graphics firmasining Crystal 3D Designer dasturidan foydalanish mumkin. Bu dastur vizuallashtirish, soyali effektlar xosil kilish, yuzalarga materiallarni joylashtirish (nalojenie materialov na poverxnosti) vositalariga ega . Silicon Graphics ning ishchi

stansiyalarida ishlatiluvchi eng kuchli modellashtirish va dizayn dasturlari katoriga Alias/Wavefront firmasining Designer, Studio va AutoStudio dasturlarini kiritish mumkin. Bu dasturlar yordamida bir vaktning uzida 2D va 3D modellar bilan ishlash xamda mavjud avtomatlashtirilgan loyixalash tizimlari bilan mujassamlashish masalasining echimini topish mumkin.

Designer dasturi splaynlar asosida yukori darajada modellashtirishni qo'llash bilan birga geometrik ob'ektlar xususiyatlarini baxolashning etarli vositalariga, animatsiyaning qulay uskunalariga xamda renderingning sifatli moduliga ega.

Designer imkoniyatlarini to'ldirib, kengaytirib Studio ga aylantirish mumkin. Studio dasturi modellashtirish imkonining yukoriligi, yuzalar va egri chiziklar bilan ishlash tizimining mukammalligi, geometrik ob'ekt, rendering va rasm chizishni baxolashning qo'shimcha imkoniyatlari bilan Designer dan farq qiladi. AutoStudio esa Studio dasturiga avtomobil dizaynerlari uchun maxsus ishlab chikilgan, modellar va animatsiyani taxrirlovchi maxsus vositalar qo'shilishi natijasida vujudga kelgan. Shuningdek, bu dasturlar Silicon Graphics ning ko'pprotsessorli modellarida ishlatilishi uchun qo'shimcha vositalar va imkoniyatlar bilan to'ldirilishi, kengaytirilishi mumkin. SGI muxitida ishlovchi avtomatlashtirilgan loyixalash tizimlari ichida yana Engineering Animation firmasining Vislab dasturini aytib utish mumkin. Bu dastur dizayn va muxandislik masalalarining vizual echimini yaratish(xosil kilish) imkonini beradi.

Kompyuter grafikasida rang tushunchasi

Kompyuter grafikasida rang juda muxim – ko'zatu taassurotni kuchaytirish va tasvirni axborotga boyitish rolini o'ynaydi. Biz ko'rayotgan yoritilgan buyumdan qaytgan yorug'lik ko'z qorachiq'i orqali ko'zimizga o'tadi va ko'z ichidagi asab xujayralarini qo'zq'atadi. Bu hujayralar asab tolalari orqali miya bilan boq'langanligi tufayli ko'z yorug'ligi miyaga o'tadi va ongimizda buyumni ko'rish tuyq'usi paydo bo'ladi. Biz buyumni ko'ramiz. Atrof muhitni bunday ko'rish qobiliyati ko'rish deb, ko'rish a'zosi esa ko'z deb ataladi.

Biz sezgi organlarimiz orqali atrof muhit haqida juda ko'p ma'lumot olamiz. Bu ma'lumotlarning 90% ni ko'rish orqali qabul qilamiz. Yorug'lik oqimi bu ma'lumotlarni eltuvchi hisoblanadi.

Bizning ko'zimiz miya bilan organizmning asab sistemasi orqali boq'langan. Agar ko'zning to'zilishini fotoapparat, kinoga olish apparati va televizion kamera kabi hozirgi zamon optikaviy apparatlarining to'zilishi bilan taqqoslasak ular orasida o'xshashlik borliqini sezishimiz mumkin.

Fizika nuqtayi nazaridan yorug'lik fundamental tabiat hodisasi hisoblanadi, u elektromagnit tebranish orqali hosil qilinadi. Elek-tromagnit tebranishning umumiy shkalasida to'lqin diapazoni etarlicha kichik o'rin egalaydi. Yorug'lik to'lqini kimyoviy reak-siya (yonish reaksiyasi) yoki qizdirish (elektr lampochkaning metall spirali) natijasida hosil qilinadi. Yorug'likning to'lqin oqimi o'zi nurlanmaydigan obyektarga tushadi va ulardan qaytishi orqali obyektning tasviri haqidagi

tasavvurni hosil qiladi. Har qanday tebranish jumladan yorug'lik tebranishining ham to'lqin uzunligi qo'shni nurlar orasidagi masofa bilan xarakterlanadi va bu diapa-zon juda qisqa bo'lib, taxminan 400 - 700 nanometr (nm) ni tashkil etadi.

Nanometr - millimetning milliondan bir qismi yoki metr-ning milliarddan bir qismi. Yorug'likning to'lqin uzunlik diapazoni 300 birlikka yaqin.

Ixtiyoriy spektrning ko'rinishini uchta komponent (qiymat) yordamida hosil qilish mumkin: to'lqin uzunligi, to'yinganlik va

yoritilganlik.

Ranglar diapazonining to'lqin uzunligi

Ranglar diapazoni	To'lqin uzunligi (nm)
Qizil	650-700
Och qizil	600-649
Sariq	550-599
Yashil	500-549
Ko'k	450-499
Binafsharang	400-499

To'lqin uzunligi - bu biz qabul qiluvchi (ko'ruvchi) nurdir.

To'yinganlik - bu nurning intensivligi yoki chastotasidir. Jad-valdan ko'rinib turibdiki, ko'k rangning intensivligi yashil hamda qizil rangnikiga qaraganda ancha kam.

Inson ko'zi 350 000 ga yaqin rangni bir-biridan ajrata oladi.

Har bir rangni to'lqin uzunliklari bir-biridan 3 nm farq qili-shi mumkin. Keltirilgan taqsimot bo'yicha ranglarni tanlash qiyin. Shuning uchun, 1933-yilda "yoritilganlik" bo'yicha Xalqaro komissiya uchta asosiy ranglar (x, y, f) kombinatsiyasini kiritdi, ya'ni biz ko'rishimiz, sezishimiz mumkin bo'lgan ixtiyoriy rangni shu uchta komponentning kombinatsiyasidan hosil qilish mumkin.

(x, y, f) rangning asosiy qismi bo'lsa, u holda rang tengla-masini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$X = \frac{x}{x+y+f}, Y = \frac{y}{x+y+f}, F = \frac{f}{x+y+f}$$

bunda, $X+Y+F=1$ bo'lishi kerak.

Rang - bu aniq chastotadagi turli yorug'lik to'lqinlarining to'plami. Rangli informatsiyaning izohini chastotali xarak-teristikalarda ifodalash - bu juda qiyin va kichik texnologik masala. Shuning uchun yorug'lik oqimida filtrlar to'plami yordamida maj-buriy taqsimlash bajariladi. Bu bosqich ranglar tahlili deb ataladi.


Rang - bu xuddi fizikadagidek, fiziologiyada ham juda murakkab jihat. Bu sohada yagona rang nazariyasi bilan juda ko'p mutaxassislar shug'ullanadilar. Shuning uchun, biz bu keng so-hani kompyuter grafikasi uchun tegishli bo'lgan qismi bilangina tanishib chiqamiz.

Jismning rangi nafaqat uning o'z xossasiga, balki xuddi shu jismni yoritayotgan yorug'lik manbayiga va insonning ko'rish qobiliyatiga bog'liqdir. Bundan tashqari, ayrim jismlar o'zidan numi qaytaradi (devor, doska, qogoz), ayrimlari esa o'zidan nurni o'tkazadi (selofan, oyna). Agar sirt faqat ko'k rangni qaytarsa, u qizil rang bilan yoritilganda xuddi qoraga o'xshab ko'rinadi. Xuddi shuningdek, agar yashil nur taratayotgan yorug'lik manbayi faqat qizil nurni o'tkazuvchi oyna orqali kuzatilsa u ham qora bo'lib ko'rinadi.

Biror bir ranglar aralashmasidan olish mumkin bo'lmagan ranglar asosiy ranglar deyiladi. Qizil, yashil va ko'k ranglar—asosiy ranglar hisoblanadi. Ularni bir hil aralashirsak oq hosil bo'ladi.

Rang modellari.


RGB modelining nomi Red - qizil, Green – yashil va Blue – ko'k birlamchi ranglarning bosh xarflaridan olingan bo'lib, ushbu ranglarning turli proporsiyalarda aralashtirish natijasida ko'rinuvchi spektrning turli hil boshqa ranglarini olish mumkin. Birlamchi ranglarning aralashmasidan ikkilamchi moviy (cyan), pushti (magenta) va sariq (yellow) ranglar xosil bo'ladi.



Rasm. 1.1. RGB modeli.

RGB modelining tashkil etuvchilari 0 dan 255 gacha qiymat qabul qilishlari mumkin. $R=255$, $G=255$, $B=255$ bo'lganda oq rang, $R=0$, $G=0$, $B=0$ bo'lganda esa qora rang xosil qilishimiz mumkin.

CMYK modeli bo'yoqlarning numi yo'tish qobiliyatiga asoslangan. Oq rangning nur o'tuvchi bo'yoqdan o'tishida spektrning bir qismi yutiladi. Yutilmagan nur qaytadi va odam ko'ziga tushadi.



Rasm. 1.2. CMYK modeli.

Ranglar moviy (Cyan), pushti (Magenta) va sariq (Yellow) ranglar aralashmasidan paydo bo'ladi. Ularning to'liq aralashmasidan qora (black) rang xosil bo'ladi. Modelining tashkil etuvchilari 0 dan 100 gacha qiymat qabul qilishlari mumkin.

HSB(HSV) modeli. Model nomi o'nga asos bo'lgan uch komponentning bosh xarflaridan olingan: Hue - rang toni; Saturation - to'yinganlik; Brightness - yorqinlik. Model odam ko'zining rangni xis qilish qobiliyatiga asoslangan.

Rang toni 0 dan 360 gradusgacha diapsondagi burchak kattaligi bilan tavsiflanadi.

To'yinganlik (yoki xromatiklik) rangning tozalik darajasidir. U kul rangning boshqa rangga nisbati bilan aniqlanadi (0% – kul rang, 100% – to'la to'yingan rang).

Rangning yorqinligi 0 dan 100 gacha o'zgarishi mumkin.

Sinov savollari:

- 1 Kompyuter grafikasi nima?
- 2 Kompyuter animasiyasi nima?
- 3 Rastrli grafikaning asosi nima?
- 4 Vektorli grafikada tasvir yaratish prinsiplarini sanab o'ting.
- 5 Qanday dasturlar rasm chizish uchun mo'ljallangan?
- 6 Qanday taqdimot dasturlarini bilasiz?
- 7 Ilmiy vizualizasiya dasturlarining vazifasi nimadan iborat?
- 8 Eng ko'p tarqalgan videotasvirlarni qayta ishlash tizimlarini sanab o'ting?
- 9 2D va 3D modellashtirish dasturlarining qo'llanish soxasi?
- 10 Rang modellarida rangni xosil qilish usullarini aytib bering.
- 11 Nazorat savollari
- 12 Rastrli grafika nima?
- 13 Rastrli grafika qaealarda ishlatiladi?
- 14 Rastrli grafikaasosiy elementi nima?
- 15 Vektorli grafika nima?
- 16 Vektorli grafika nimalarda ishlatiladi?
- 17 Fraktal grafika nima?
- 18 Fraktal grafika qanday dasturlar asosida quriladi?
- 19 Uch ulchovli grafika nima?

2-BOB. COREL DRAW GRAPHICS DASTURIY PAKETI.

2.1. Corel Draw Graphics dasturiy paketi haqida

Kanadaning Corel nomi bilan ataluvchi firmasi dasturiy ta'minot bilan shug'ullanuvchi peshqadamlardan biri hisoblanadi. Corel firmasining dasturiy ta'minoti asosini tashkil etuvchi CorelDRAW 11 2002-yilning avgustida ishlab chiqarildi. U reklama mahsulotlarini ishlab chiqarishda, nashrlarni tayyorlashda hamda Web-sahifalari uchun tasvirlarni yaratishda katta imko- niyatga ega.

Corel DRAW — bu grafikli dastur bo'lib, uning yordamida vektorli tasvirlarni, grafikli matnlarni hamda sizning tasavurin- gizdagi barcha Ijodiy g'oyalaringizni amalga oshirishga yordam beradi.

Corel DRAW dasturi ishlaydigan barcha tasvirlar ikki sinfga bo'linadi: nuqtali va vektorli. Vektorli grafikada tasvirning asosiy elementi sifatida chiziq qaraladi. Rastrii grafikada bunday chiziq- lar nuqtalar (piksellar) yordamida yaratilsa, vektorli grafikada esa tasvirlar yaratishda nuqtaga nisbatan umumiyroq bo'lgan chiziqlardan foydalaniladi va shuning hisobiga tasvirlar aniqroq bo'ladi.

Vektorli grafikaning ixtiyoriy tasvin chiziqlardan tashkil topadi va oddiy chiziqlardan murakkablari hosil qilinadi. Vektorli grafikaning matematik asosini geometrik figuralarning xossasmi o'rganish tashkil qiladi. Vektorli tasvirlarning kompyuter xotirasida ifodalanishi nuqtali tasvirlarga qaraganda murakkabroqdir. Nuqtali tasvirning kamchiligi — kompyuter xotirasida ularni saqlash katta joy talab etiladi. Nuqtali tasvirlar bilan yuqori aniqlikda ishlashda, ularga mos fayilarning o'lchami yuzlab megabaytlarni tashkil etadi. Ko'pincha, bunday katta obyektlar bilan ishlashda zamonaviy kompyuterlarning tezligi etmay qoladi. Vektorli tasvir bilan ishlash juda ham oson. Um katta yoki kichik qilish uchun, faqat uni boshqaradigan tasvir parametrini o'zgartirish mumkin. Bunda vektorli tasvir faylining o'lchami bir baytga ham oshmaydi.

Ma'lumotlar tasvirlar orqali berilganda ularni tahlil qilish va qabul qilish tezligi, ma'lumotni eshitish kanallari orqali berilgan ma'lumotlardan ko'ra ancha yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham tasvirdan iborat birgina reklama plakati (osongina kerakli ta'sirni bera oladigan) tomosha qilayotgan odamga bir necha qator e'londan ko'ra kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Har qanday hajmdagi ma'lumot ko'rish kanali orqali uzatilsa odam tomonidan yaxshi qabul qilinadi (bolalarga suratlardan iborat kitoblar yoqadi). Boshqa formatda esa bunday ma'lumotni qabul qilib bo'lmaydi (birjalardagi jadvallar). Shu sababli ham grafikli ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.

17



Bunday grafiklar va tasvirlar bilan ishlashga mo'ljallangan dasturiy vositalar juda ham ko'p va xilma-xil. Ana shunday dasturlardan biri CorelDRAW dasturidir.

CorelDRAWning 12-versiyasi o'zida zamonaviy imkoniyatlarni birlashtirgan bo'lib, 2004-yilda ishlab chiqarilgan. Bu dastur sanoat dizaynida, reklama mahsulotlarini ishlab chiqishda, nashriyot tizimlarida va web-sahifalar uchun turli tasvirlar yaratishda ishlatiladi. Corel DRAW dasturi paket dastur hisoblanib, o'z ichiga bir nechta qism dasturlarni oladi. Bu dasturlar o'zaro ma'lumot almashishning engil kechishini ta'minlaydi.

Paketning yaxlitligi uning tarkibiga kiruvchi dasturlarning ma'lumotlarni oson almashinishi yoki shu ma'lumotlar ustida ketma-ket turli xil vazifalarni bajarishi bilan belgilanadi.

«Obyektga yo'naltirilgan» atamasi tasvirlarni yaratish va o'zgartirish jarayonidagi barcha operatsiyalar. rasmning o'zi yoki uni tashkil qilgan piksellar bilan emas, balki tasvirni tashkil qilgan semantik belgilangan elementlar ustida boradi. Standart obyektlarni qo'llagan holda (aylana, to'g'ri to'rtburchak, matn va boshqalar) foydalanuvchi murakkab obyektlar qurishi va ularni birlashtirib yagona butun obyekt sifatida qarashi mumkin. Shu tarzda. rasm iyerarxik tuzilishga ega bo'lib, eng yuqorisida butun vektorli tasvir bo'lgan, eng quyida esa standart obyektlardan iborat bo'ladi.


Paket obyektga yo'naltirilishining yana bir afzalligi har bir obyektning standan sinfiga boshqaruv parametrlari yoki atributlar o'rnatiladi.

